FARG‘ONA VILOYATI QO‘QON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 1-aprel | 69-11-166-Q/25 | Qo‘qon shahar hokimligi

3,1 “kirish taqiqlangan” hamda 3.27 “to‘xtash taqiqlangan” taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat etish to‘g‘risida

Qo‘qon shahar Movarounnahr, Guzar, Istiqlol ko‘chalari hududida renovatsiya asosida turar joy komplekslari qurilishi olib borilayotganligi sababli harakat xavfsizligini ta’minlash, haydovchilarga qulaylik yaratish va tirbandliklarni oldini olish maqsadida 3,1 (kirish taqiqlangan) hamda 3,27 (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida Qo‘qon shahar IIBning 2025-yil 25-fevral kunidagi 36/1-12-sonli aloqa xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qo‘qon shahar IIBning 2025-yil 25-fevral kunidagi 36/1-12-sonli aloqa xatlari inobatga olinsin.

2. Qo‘qon shahar Movarounnahr –Guzar-Yorqo‘rg‘on ko‘chalari kesishmasi chorahasidan Movarounnahr ko‘chasiga 3.1 (kirish taqiqlangan);

Movarounnahr-Istiqlol ko‘chalari kesishma chorahasidan Istiqlol ko‘chasi bo‘ylab Naymancha yo‘nalishiga 3,1 (kirish taqiqlangan);

Istiqlol ko‘chasidan joylashgan Majburiy ijro byurosi Qo‘qon shahar bo‘limi binosi oldiga 3,27 (to‘xtash ta’qiqlangan);

Movarounnahr 1-tor ko‘chasi 53-uy oldiga 3.27 (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat etilsin.

4. Qo‘qon shahar IIB YXHB (D.Abduraxmonov)ga yo‘l belgisi o‘rnatish chorasini ko‘rish, mazkur avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorni “Muloqot” TV (X.Shermatov), “Qo‘qon sadosi” ro‘znomasi tahririyati (M.Sultonov), shahar hokimligi Axborot xizmati (U.Norboyev)ga ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Suleymanov zimmasiga yuklatilsin.

Qo‘qon shahar hokimi **M.Usmonov**